

## GLOBAL IQTISODIY SHAROITDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

*Yo'ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri*

*Sayfullaev Mehroj Sayfullaevich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*katta o'qituvchisi, Phd*

**Annotatsiya:** Hozirgi jahon iqtisodiyotining tobora globallashib borayotgan bir vaqtida, moliyaviy hisobotlarning muhim elementlaridan biri bo'lgan tovar-moddiy zaxirlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Shu sababli mazkur maqolada tovar-moddiy zaxiralarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** tovar-moddiy zaxira, materiallar, tannarx, tovarlar, xalqaro standard, milliy standard, tayyor mahsulot.

**Kirish.** Hozirgi kunda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan iqtisodiy subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatining natijalarni baholash masalalariga yangicha, zamonaviy yondashuv uslublari juda ham zarur. Zero, hukumatimiz tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish, auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholash, moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini takomillashtirish borasida bir qancha qarorlar qabul qilinishi ham xo'jalik subyektlarida moliyaviy salohiyat samaradorligi tahlilini o'tkazishni dolzarbligini va amaliy ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi. Demak, korxonalarining moliyaviy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mavzu hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxirlar xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali tashkil etishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, mahsulot tannarxini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Iqtisodiy globalashuv sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning umumiyligi tizimida mahsulot tannarxi ko'rsatkichi asosiy o'rinni egallaydi. Chunki mahsulot tannarxini kamaytirish korxona foydasini oshishi hamda o'z faoliyatini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishiga olib keladi. Bu ko'rsatkichlar samaradorligini yanada oshirish uchun tovar-moddiy hisobini yuritishini xalqaro

standartlarga moslashtirish kerak. Ayni shu maqsadda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish boyicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" PQ-4611-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur qarorda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o'rinnlarda — MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish" bo'yicha bat afsil to'xtalib o'tilgan, Yuqorida keltirilgan qaror to'liq ta'minlanishi, darhaqiqat, aholini sifatli va arzon mahsulotlar bilan ta'minlanishiga hamda jahon bozorida iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishda xomashyo va resurslardan oqilona foydalanishga sabab bo'ladi.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O.Bobojonov va K.Jumaniyazovlarning olib brogan izlanishlariga ko'ra, tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi mavjud zaxiralarning inventarizatsiya natijalari boyicha aniqlanadi. TMZni uzlusiz hisobga olish tizimini qo'llaganda TMZning balans schyotlarida tovar-moddiy zaxiralarning kelib tushishi va chiqib ketishi bat afsil aks ettiriladi [1]

M.I.Hayitboev o'zining ilmiy maqolasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida zaxiralarni tan olish vaqtini aktivni o'tgan voqealar natijaida tashkilot tomonidan nazorat qilinuvchi resurs sifatida umumiyligi tushunishga tayanib, undan iqtisodiy naf olinishi munosabati bilan zaxiralalar hisobida ular ustidan nazorat


o'rnatish va iqtisodiy foyda olish imkoniyati bo'yicha tan olinishi kerakligini ta'kidlab o'tgan.

I.K.Ochilov va J.E.Qurbanboevlarning fikricha, sof sotish qiymati-tovar sotilishining tahminiy qiymatidan tovarlarni sotuv oldidan tayyorlash va uni sotish xarajatlarining ayirmasidir [2]

B.A.Xasanov va A.B.Akramovlar fikricha tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil qilishda dastlab inventarizatsiya jarayoni puxta ishlab chiqish kerak va xorij davlatlari amaliyotlariga murojaat etgam holda tovar-moddiy zaxitralar inventarizatsiyasini avtomatlashtirish kerak. [3]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolaning uslubiy asosi sifatida iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tovar-moddiy zaxirlarni tasniflash va baholash hamda ularning tannarxlarini aniqlash masalalari bo'yicha izlanishlari, ekspert baholash, qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda kuzatish, taqqoslash, guruhlash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Quyida keltirilgan rasmda 4-son BHMS va 2-son MHXS dagi usullarini struktura ko'rinishida ifodalalanilgan.(1-rasm)



**1-rasm. Milliy hamda xalqaro standartlarda ishlataladigan tovar-moddiy zaxiralarining baholash usullari<sup>1</sup>**

**Tahlil va natijalar.** Tovar-moddiy zaxiralarini buxgalteriya hisobida to'g'ri va aniq baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning "Aktivlar va majburiyatlarni baholash" to'g'risidagi 17-moddasiga muvofiq, tovar-moddiy zaxiralarni baholash quyidagi ikkita bahoning eng pastibalans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarx (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki bozor bahosi (realizatsiya qilishning sof qiymati) amalga oshiriladi [1].

"Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMSga asosan, korxonda zaxiralarni baholash quyidagi ikki usulda amalga oshiriladi: [4]

- Realizatsiya qilishning sof qiymati usuli;
  - Realizatsiya qilishdan yalpi foydaning doimiy ulushi usuli.
- "Zaxiralar" nomli 2-son buxgalteriya hisobining xalqaro standartida esa baholash quyidagi ikki usulda amalga oshiriladi: [3]
- Realizatsiyaning qilishning sof qiymati usuli;
  - Adolatli qiymat usuli .

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

“Zaxiralar” nomli 2-sonli MXHS agar zaxiralardan foydalanish natijalari taxminan tannarx qiymatini ifodalasa, zaxiralar tannarxini aniqlashning turli usullaridan foydalanishga ruxsat beradi. Zaxiralar tannarxini aniqlash uchun quyidagilar qo'llaniladi:

1. Aniq xarajatlarning o'ziga xos identifikatsiya usuli;
2. FIFO usuli (dastlabki tushum-dastlabki xarajat);
3. O'rtacha tortilgan qiymat (AVEKO) usuli boyicha.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan alohida tartibda foydalaniladigan (qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar va hokazo) va bir-birining o'rmini bosmaydigan (ya'ni ular odatdagi holda bir-birini almashtira olmaydi), shuningdek maxsus loyihamlar uchun ishlab chiqarilgan va mo'ljallangan (ishlatiladigan) tovar-moddiy zaxiralar Aniq xarajatlarning o'ziga xos identifikatsiya usuli bo'yicha baholanadi. Ushbu usulda o'ziga xos xarajatlar muayyan tovar-moddiy zaxiralarga olib boriladi. Aks ettirishning ushbu usuli, ular sotib olinganligi yoki ishlab chiqarilganligidan qat'iy nazar, maxsus loyihamlar uchun mo'ljallangan mahsulotlarga to'g'ri keladi.

FIFO usuli bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketayotgan birliklari tannarxiga birinchi navbatda xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralarning qiymati kiradi, davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qiymati esa oxirgi bo'lib xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralar birliklarining umumiyligi qiyamatidan tashkil topadi.

AVECO usuli bo'yicha tovar-moddiy zaxiralar har bir birligining qiymati davr boshida aynan bir xil birliklarning o'rtacha tortilgan qiymati va davr mobaynida xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan aynan bir xil birliklarning qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi. Tovar-moddiy zaxiralar har bir birligi qiymatini AVECO usuli bo'yicha aniqlash davr boshidagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig'ining tannarxi va miqdori hamda ushbu davr mobaynida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi va miqdoridan shakllanadigan, aynan bir xil birliklarning umumiyligi tannarxini ularning umumiyligi miqdoriga bo'lish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'rtacha qiymat tashkilot tomonidan tanlangan usulga qarab davriy yoki tovar-moddiy zaxiralarning har bir yangi partiyasi kelib tushishiga ko'ra hisoblab chiqarilishi mumkin.

#### 1-jadval.

#### Xorijiy mamlakatlar amaliyotda qo'llaniladigan zaxiralarini baholash usullari<sup>2</sup>

Mamlakat	FIFO	O'rtacha qiymat (AVECO)	Sof sotish qiymati	Boshqalar
AQSH	+	+	-	Chakana usul
Germaniya	+	+	+	XIFO, LOFO, KIFO, KILO
Fransiya	+	+	+	-
Buyuk Britaniya	+	+	+	-
Italiya	+	+	-	-
Gretsiya	+	+	-	Tayyor mahsulotlarni zaxiralash usuli
Ispaniya	+	+	-	-
Lyuksemburg	+	+	+	Haqiqiy xarajatlar
Niderlandiya	+	+	-	Tayyor va tugallanmagan ishlarni zaxiralash usuli
Portugaliya	+	+	-	Zaxiraning standart va maxsus (bozor) narxi
Rossiya	+	+	-	Har bir birlikning tannarxi usuli
Shvetsariya	+	+	-	-
Shvetsiya	+	-	+	Bajarishda foiz usuli, shartnomani yakunlash usuli

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

Jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilinishi mumkin bo'ladiki, tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish bo'yicha keng tarqalgan usullar o'rtacha tortilgan qiymat (AVEKO) va FIFO hisoblanadi. Shu sababli, xalqaro hisob tamoyillariga o'tishda, tovar-moddiy zaxiralarni o'rtacha qiymatda baholash maqsadga muvofiq bo'ladi. Tovar-moddiy zaxiralarni joriy qiymat bo'yicha baholash ularning qiymatini hisobot davridagi aniq qiymatga imkon qadar yaqin miqdorda taqdim etish imkonini beradi. Joriy qiymat bo'yicha baholangan tovar-moddiy zaxiralar moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga to'liq va aniq ma'lumot olish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotda tovar-moddiy zaxiralar to'g'risida ma'lumotlaning aniq va imkon qadar to'liq tushunarli qilib olib berilishi buxgalteriya axborotlarining aniqligini va shaffofligini ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Global iqtisodiy sharoitda tovar-moddiy zaxiralarni xalqaro standarlarga muvfiq shakllantirish, tasniflash hamda baholashda xorijiy rivojlangan davlatlar AQSH, Germaniya va boshqa davlatlar qo'llaydigan ilg'or tajribalardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu esa o'z navbatida tashkilotlarda tovar-moddiy zaxiralarning kirib kelishi, qayta baholanishi va chiqib ketishi ustidan kuchli nazorat o'rnatish imkonini yaratadi, shuningdek moliyaviy hisobotlarning aniqligi va shaffofligi ta'minlashga xizmat qiladi.

Yana shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hozirgi inflatsiya darajasi yanayam oshib borayotgan muhitda tovar-moddiy zaxiralarni baholashning FIFO usulidan foydalanish maqsadga muvoqfiq bo'ladi.

Chunki tannarxni baholashning bu usulida yuqorida aytib o'tganimizdek, dastlabki chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga dastlabki xarid qilingan yoki ishlab ishlab chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymati kiradi va davr oxirida chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralar tannarxifa oxirida xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymati qo'shiladi. Bu esa o'z navbatida bozorda tovar va mahsulotlarning bahosini keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'RQ-404-son Qonuni.
2. «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-sod BHMS.
3. «Zaxiralar» nomli 2-sod MHXS.
4. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Molivaviy hisob. – T.: «Moliya» nashriyoti, 2002. -672- b.
5. Hayitboev.M.I. Tovar-moddiy zaxiralarini baholash va ularga doir axborotlarni molivaviy hisobotda olib berish xususiyatlari // “Iqtisodiyot va moliya” ilmiy elektron jurnali. 2019, № 657 30-aprel
6. Ochilov I.K., Qurbonboev J.E. Molivaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2007. -488-b.
7. Xasanov B.A., Akramov A.B. Бухгалтерский учет и финансовая отчетность товарноматериальных запасов полиграфических предприятий. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. 2018, № 2, mart-aprel.